Mamlakatimizda atrof-muhitni himoyalashga ixtisoslashgan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish shakllari.....	1347
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
Mahalliy farmatsevtika mahsulotlari bozori va iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish xususiyatlari.....	1353
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
Soliq va buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy vositalar hisobining dolzarb masalalari	1359
Arifanova Xabiba Shuxratovna	
Institutsional islohotlar sharoitida mamlakatni moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	1365
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Ermo'minov Iskandar Ziyodillayevich	
Mehmonxonalarda xizmat sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari.....	1370
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Resurslar yetishmaydigan hududning investitsion jozibadorligini shakllantirishning uslubiy asoslari.....	1375
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	



Jahon moliyaviy arxitekturasi va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlari.....	1381
<i>Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova, Karimov G'ayratjon Toxir o'g'li</i>	
"O'zneftgaz" AK tizimidagi korxonalarda joriy aktivlarning sof foyda hajmi va uning o'zgarishiga ta'sirini perespektiv tahlili.....	1386
<i>Mavlyanova Dilobar Maxkamovna</i>	
Oliy ta'lif tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti va uning konseptual asoslari.....	1392
<i>Teshayev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Boltayeva Mohichehra Sharipovna</i>	
"Xufiyona iqtisodiyot"ning jamiyatga ta'siri	1397
<i>Mirzayev Zarshed Mirzayevich, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi</i>	
Kichik va o'rta biznes subyektlarini tadbirdorlik qobiliyatini baholashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari....	1400
<i>Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi</i>	
Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining me'yoriy-huquqiy asoslari	1404
<i>Beknazarova Nilufar Tulkinovna</i>	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmnинг о'rni.....	1407
<i>Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna</i>	
Tijorat banklarida raqamlı transformatsiya jarayoni, undagi muammolar va ularni yechish yo'llari	1411
<i>Xudayarova Xurshida Abdunazarovna</i>	
Oliy ta'lif muassasalarida strategik boshqaruva tizimining o'ziga xos xususiyatlari va natijalari.....	1417
<i>Umarova Xilola Uktamovna</i>	
Korxonalar faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning afzallik va kamchiliklari.....	1426
<i>Ro'zmamatov Abbos Tolibjon o'g'li</i>	
Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda xorij mamlakatlarining tajribasi	1430
<i>Raxmonov G'ayrat Ismatulloyevich</i>	
Katta ma'lumotlar (BigData) davrida raqamlı iqtisodiyotni rivojlantirishni tahlil qilish.....	1434
<i>Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Umarova Go'zal Sabirovna</i>	
Investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari	1437
<i>Isakov J. Ya.</i>	
Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili.....	1444
<i>Raxmonov G'ayrat Ismatulloyevich</i>	
Цифровизация страховой сферы в Республике Узбекистан.....	1449
<i>Шермаматова Ирода Ойбековна</i>	
Agritourism development in Uzbekistan: insights from science and literature.....	1455
<i>Aktamov Olimjon Abdugani ugli</i>	
Управление хозяйственной деятельностью торговых предприятий.....	1459
<i>Юлдашева Гульмира Азатовна, Зияев Дилшоджон</i>	
Davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari.....	1464
<i>Xamrayev Olimjon Yaxshiboyevich</i>	



DAVLATNING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

Xamrayev Olimjon Yaxshiboyevich

"Alfraganus" universiteti Iqtisodiyot kafedrasи katta o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbekiston rivojlangan iqtisodiyotni barpo etish yo'lida aholi soni tez o'sib borayotgan va uning oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq asosiy masalalarga duch kelmoqda. Ushbu maqolada global iqtisodiy muammolardan biri bo'lgan oziq-ovqat-xavfsizligi va uning mamlakatimizdagi o'ziga xos jihatlari hamda davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar ko'lami ochib berilgan, mavjud muammolar yuzasidan xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat ta'minoti, oziq-ovqat muhiti, ratsinal iste'mol me'yorlari, oziq-ovqat tizimlari, agrosanoat kompleksi.

Abstract: Uzbekistan, on its way to building a developed economy, is facing major problems related to the rapid growth of the population and meeting its demand for food, as well as ensuring food security. This article reveals one of the global economic problems, food security and its specific aspects in our country, as well as the scale of the reforms carried out by the state, provides conclusions and recommendations on existing problems.

Key words: food security, food supply, food environment, rational consumption standards, food systems, agro-industrial complex.

Аннотация: Узбекистан на пути к построению развитой экономики сталкивается с основными проблемами, связанными с быстрым ростом населения и удовлетворением его спроса на продукты питания, а также с обеспечением продовольственной безопасности. В данной статье раскрываются одна из глобальных экономических проблем продовольственная безопасность и ее специфические аспекты в нашей стране, а также масштабы проводимых государством реформ, приводятся выводы и рекомендации по существующим проблемам.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, продовольственное обеспечение, пищевая среда, нормы рационального потребления, продовольственные системы, агропромышленный комплекс.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo bo'ylab turli ko'rinishdagi global iqtisodiy inqirozlar, iqlim o'zgarishi va qurg'oqchilik, turli kasalliklar, epidemiyalar va pandemiyalar bilan bog'liq muammolar kuzatilmoqda. Masalan, 2019-yilda boshlangan Covid-19 pandemiyasi butun dunyoda iqtisodiy inqirozga olib kelgan bo'lsa, pandemiya butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarning hayotiga zomin bo'ldi. Butun dunyoga tarqalgan pandemiya dunyoning ko'plab mamlakatlarni nafaqat iqtisodiy jihatdan bunday holatlarga, balki oziq-ovqat xavfsizligiga ham tayyor emasligini ko'rsatdi. Oziq-ovqat ta'minoti zanjiridagi uzilishlar, tizimdagи beqarorlik va tartibsizlik, oziq-ovqat zahiralarining yetishmasligi yaqqol ko'zga tashlandi. Pandemiya davrida aholining quyi qatlamlarining oziq-ovqat bilan ta'minlanmaganligi ular orasida ochlikning kuchayishiga olib keldi. Bu, ayniqsa, oziq-ovqat ta'minotining muqobil manbalariga ega bo'lmagan mamlakatlar uchun alohida xavf tug'dirdi. Shu bois oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning xilma-xilligini kengaytirish, mavjud resurslarni yaratish va ko'paytirish bugungi kun hukumatlarining eng muhim masalalariga aylanib bormoqda.

Ayni paytda O'zbekiston jadal rivojlanayotgan demografik mamlakat bo'lib, aholining o'rtacha yillik o'sishi 1,92 foizni tashkil etadi. O'zbekiston Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari orasida eng ko'p aholiga ega, ya'ni 37,2 million aholi [10]. Shu sababli ham O'zbekistonda aholining yetarli oziq-ovqatga bo'lgan va ortib borayotgan talabini qondirish uchun oziq-ovqat xavfsizligiga erishish asosiy masala hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon oziq-ovqat xavfsizligi qo'mitasi (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, "Har bir inson yetarli darajada oziq-ovqat olish huquqiga ega" [8]. Bu yangi O'zbekiston hukumatining asosiy vazifalaridan biridir.



Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5853-son¹ hamda 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son² farmonlari qabul qilindi. Unda: oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish; oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va iste'molchilarning ratsionini yanada yaxshilash; zarur miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning zaxiralarini yaratish mexanizmlarini takomillashtirish; shu jumladan, xalqaro miqyosda tan olingan va qo'llaniladigan metodologiyalar va ilg'or tajribalar asosida oziq-ovqat xavfsizligini baholash bo'yicha monitoringi yuritish belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi, uni ta'minlashning nazariy va uslubiy asoslari bir qancha jahon va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan. G'arb olimlardan Griggs D. va boshqa olimlar guruhi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida quyidagi mulohazalarini bildiradi: "Yer yuzida sodir bo'layotgan jarayonlarida keng tarqalgan inson bosimining keyingi xavfi keskin va ehtimol qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlarga olib keladi. Bunda suv tanqisligi, anomal ob-havo, oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun sharoitlarning yomonlashishi, ekotizimning yo'qolishi, okeanlarning kislotalanishi va dengiz sathining ko'tarilishi taraqqiyotga tahdid solishi va butun dunyo bo'ylab gumanitar inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan haqiqiy xavflardir. Dunyodagi kambag'allar orasida o'sib borayotgan farovonlik va rivojlanish huquqi barcha xalqlarning barqaror turmush tarziga aylanishini talab qiladi." ^[4]

J. Saks o'z tadqiqotida Mingyillik rivojlanish maqsadlari butun dunyo bo'ylab muhim ijtimoiy ustuvorliklarga erishish uchun global safarbarlikning tarixiy va samarali usuli hisoblanishini ta'kidlaydi. U qashshoqlik, ochlik, kasallik, yetarlicha ta'minlanmagan maktab ta'limi, gender tengsizligi va atrof-muhit degradatsiyasi bilan bog'liq muammolar keng jamoatchilikning tashvishini ekanligiga e'tibor qaratadi. ^[5]

MDH iqtisodchi olimlardan D.V.Zerakalov tomonidan "Oziq-ovqat xavfsizligi"ga bag'ishlangan monografiyasida oziq-ovqat xavfsizligi masalalari jahon tarixiy jarayonlarida ko'plab amaliy taxillar keltiriladi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash suv resurslarining XXI asrga borib tanqisligi yuzaga keltirishi hamda bu global iqtisodiy muammoga aylanishi haqida ko'plab rasmiy statistik materiallar taxlilini keltirib o'tadi. ^[2]

Ushachev I. boshchiligidagi bir guruh rossiyalik olimlarning fikriga ko'ra, "oziq-ovqat xavfsizligi" oziq-ovqat mustaqilligi va oziq-ovqatga jismoniy va iqtisodiy jihatdan kirishni o'z ichiga olgan murakkab tushunchadir. "Oziq-ovqat mustaqilligi" - bu me'yoriy va haqiqiy iste'mol darajasidan kelib chiqqan holda, mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini o'zi ta'minlashi, ya'ni mamlakatdagi ishlab chiqarishning barcha turdag'i umumiy ichki iste'molga nisbati bilan belgilanadigan tushunchadir deb izohlaydi. ^[3]

O'zbekistonda tadqiq qilinayotgan muammoning ayrim tomonlari Sh.Shodmonov, T.Jo'rayev, D.Tojiboyeva va boshqalar tomonidan oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ularning o'quv qo'llanma va dasrliklarida ayrim qirralari umumiy tarzda o'rganilgan bo'lsa, H.P.Abulqosimovning "Davlatning iqtisodiy xavfsizligi" o'quv qo'llanmasida oziq-ovqat xavfsizligi muammosi o'rganilgan, milliy iqtisodiy doirasida barataraf etish bo'yicha amaliy tavsiya va takliflar berishga harakat qilingan. Biroq, o'rganilgan tadqiqotlarda asosan oziq-ovqat xavfsizligi masalasi global iqtisodiy xavfsizlikni yuzaga keltiruvchi omil sifatida baholangan. ^[1]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligining hozirgi holati va undagi o'zgarishlarga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilindi hamda nazariy-uslubiy asosi sifatida bir qator xalqaro tashkilotlar, olimlarning ilmiy maqola va tadqiqotlari o'rganildi. Kuzatuvalarimiz natijasida aniqlangan muammolarni yechimini topishda quyosiy tahlil qilishga harakat qilindi. Oziq-ovqat xavfsizligiga oid Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Jahon banki, O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligining materiallari va statistik ma'lumotlaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Oziq-ovqat xavfsizligi" tushunchasi va unga berilgan ta'riflari 1940-yillarning boshida birinchi marta fanda qo'llanilgandan hozirgi kunga qadar rivojlanib kelmaqda. Dastlabki oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining mohiyati "ochlikdan qutilish" ma'nosidan kelib chiqadi. Salomatlikni asrash uchun zarur bo'lgan oqsil va boshqa ozuqaviy moddalarni o'z ichiga olgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida, asosiy

1 lex.uz/docs/4567334

2 lex.uz/uz/docs/-5841063



iste'molning eng kam miqdordagi energiyasiga ega bo'lgan don va boshqa ozuqalarga bo'lgan ehtiyojlarni ta'minlashdan boshlab, bosqichma-bosqich oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga erishish rejalashtirilgan edi. 1970-yillarda rivojlangan oziq-ovqat xavfsizligiga berilgan ta'riflar ko'proq oziq-ovqat ta'minoti, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi faoliyatiga qaratilgan bo'lib, unda barcha odamlar yetarli miqdorda oziq-ovqat iste'moli tus-hunchasiga yo'naltirildi.

Hozirgi kunda oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasini izohlashda eng ko'p qo'llaniladigan ta'rif 2001-yilda oziq-ovqat xavfsizligi sharoitida yana takomillashtirildi: "oziq-ovqat xavfsizligi barcha odamlar har doim o'zlarining parhez ehtiyojlari va faol sog'lom hayot uchun oziq-ovqat imtiyozlariga javob beradigan etarli, xavfsiz va to'yimli oziq-ovqatdan jismoniy va iqtisodiy foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganda yuzaga keladi". [14] Ushbu ta'rifda oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi ko'p o'lchovli ekanligi asoslab berildi.

Jahon oziq-ovqat xavfsizligi qo'mitasining oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat bo'yicha yuqori darajadagi ekspertlar guruhi (HLPE) tomonidan oziq-ovqat va oziq-ovqat xavfsizligi holati baholanadi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tortib iste'mol qilishgacha bo'lgan barcha ishtirokchilar va tadbirlarni hamda ushbu faoliyat natijalarini o'rganadi. HLPE oziq-ovqat tizimining harakatga keltiruvchi ijrochilar va uning elementlarini alohida holda mavjud bo'la olmasliklarini, yani ular bir-biri bilan bog'liq bo'lgan sog'liqni saqlash, energiya va transport tizimlari bilan o'zaro aloqada bo'lishlarini ta'kidlaydi.

Oziq-ovqat ta'minoti zanjirlari oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tortib iste'mol qilishgacha bo'lgan faoliyat va undagi ishtirokchilarni o'z ichiga qamrab deb ta'kidlaydi. Bunda quyidagi bosqichlar sanab o'tiladi: ishlab chiqarish; saqlash va tashish; qayta ishlash va qadoqlash; chakana savdo va bozorlar. Ta'minot zanjiri elementlari oziq-ovqat va oziq-ovqat xavfsizligining to'rtta o'lchoviga ta'sir qiladi, ya'ni mavjudlik, foydalanish (jismoniy va iqtisodiy), foydalanish va barqarorlik.

Mutaxassislar iste'molchining xatti-harakati iste'molchilar tomonidan uy xo'jaligi yoki individual darajada, qanday oziq-ovqat sotib olish, saqlash, tayyorlash, pishirish va yeyish, shuningdek, uy ichidagi oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlash (jumladan, jinsga qarab taqsimlash va oziqlantirish) bo'yicha barcha tanlov va qarolarni aks ettiradi. Iste'molchilarining xulq-atvori asosan aholining oziq-ovqat tanloviga ta'sir qiladi va shakllantiradi deb hisoblaydi.

HLPE tizimi oziq-ovqat tizimlarining uchta tarkibiy elementini (oziq-ovqat ta'minoti zanjiri, oziq-ovqat muhit va iste'molchilarining xatti-harakati) belgilaydi, ular dietani shakllantiradi va oziq-ovqatning yakuniy ovqatlanishi, sog'lig'i, iqtisodiy va ijtimoiy natijalarini belgilaydi. [8] Ulardan O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini tahlil qilish va baholash uchun foydalaniladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz aholisi uchun yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlaydi, degani emas. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1996-yilgi Rim deklaratsiyasida "Oziq-ovqat xavfsizligi kontseptsiyasi" [16] uning asosiy tamoyillarini belgilab berdi:


- oziq-ovqat xavfsizligi deganda nafaqat o'zini o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlash, balki mamlakat qiyosiy ustunlikka ega bo'lsa, o'z ehtiyojlari uchun yetarli miqdorda foydali ozuqa maxsulotlari ishlab chiqarishi kerak;
- hukumatlar, agar kerak bo'lsa, fuqarolarning ehtiyojlarini qondirish uchun qancha oziq-ovqat kerak bo'lsa, shuncha miqdorda import qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak;
- davlat o'z fuqarolari uchun oziq-ovqat bo'yicha ham jismoniy, ham iqtisodiy jihatdan xavfsiz bo'lishini ta'minlashi kerak;
- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda aholining o'zgaruvchan va doimiy o'sib borayotgan individual ehtiyojlarini hisobga olish kerakligini ham yodda tutish lozim;
- hukumatlar har qanday tashqi omillardan qat'iy nazar, mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlashi, oziq-ovqat ta'minoti esa mavsumiy va iqlimi omillarga moslashuvchan bo'lishi kerak.

O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligi oziq-ovqat xavfsizligi va xavfsizlikni ta'minlashning asosiy tarmog'i bo'lib, yalpi ichki mahsulotning qariyb 26,07 foizini tashkil etadi va 2020-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mamlakat umumiyligi eksportidagi ulushi 8,8 foizni tashkil etadi. Buning uchun nafaqat oziq-ovqat xavfsizligi tizimini yaratish, balki aholining katta qismi ushbu sohada band ekani, aholi daromadining uchdan bir qismi qishloq xo'jaligiga bog'liqligini hisobga olsak, oziq-ovqat xavfsizligi sohasini isloh qilish dilzarb ahamiyat kasb etadi. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotlariining umumiyligi statistik ma'lumotlar bazasi ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligida 26 770 ga yerdan o'tloqlar, yaylovlar, ekinlar maqsadida foydalanilgan bo'lsa, shundan 12 561 ga yerdan boshqa maqsadlarda foydalanilgan. [10]

Oziq-ovqat ta'minotining asosiy hissasi dehqon xo'jaliklariga to'g'ri keladi, shuning uchun ular mamlakatimiz oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimining asosiy sub'ekti hisoblanadi. Davlat statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2021-



yilda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotini fermer xo'jaliklari turlari bo'yicha ushbu ko'rsatkich eng yuqori ulush 65,9 foiz bilan dehqon xo'jaliklariga to'g'ri keldi, fermer xo'jaliklarining ulushi esa 29,2 foizni tashkil etdi. Qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga atigi 4,9 % to'g'ri keldi (1-rasm). Bundan tashqari, dehqon xo'jaliklari va fermer xo'jaliklari davlat tomonidan xususiy fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlayotganini aks etti-ruvchi yetarli miqdordagi milliy moliyalashtirish dasturlariga ega bo'lib, bu qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko'rsatadi.




1-rasm: 2021-yilda fermer xo'jaliklari turlarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining taqsimlanishi

Muallif tomonidan tuzilgan

Sohada oziq-ovqat maxsulotlarini saqlash va yetkazib berish oziq-ovqat ta'minoti zanjirlarining asosiy elementlaridan biri hisoblanib, oziq-ovqat ta'minoti zanjirlarining ushbu bosqichida oziq-ovqat sifatiga, oziq-ovqat yo'qotishlariga va chiqindilariga muhim ta'sir ko'rsatadi. [13] Qishloq xo'jaligi sektori ko'lami va aholi sonidan kelib chiqib, yetarli miqdorda hosilni saqlash uchun omborlar mavjud biroq, oziq-ovqat yo'qotishlari ko'rsatkichi hali ham yuqori va bu qishloq xo'jaligi infratuzilmasini yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Qishloq xo'jaligining umumiy hajmida eng ko'p ulushga ega bo'lgan fermerlar o'z mahsulotlarini asosan mahalliy bozorlarda sotadilar, ba'zan esa Toshkentga (poytaxtga) qimmat narxlarda olib boradilar. Fermer xo'jaliklari kichik va oilaviy mehnatga asoslanganligi sababli, ular oziq-ovqatni katta bozorlarga odatda oziq-ovqat tashish uchun maxsus jihozlanmagan eski yuk mashinalarida (masalan, muzlatgichi bo'lмаган mashinalarda) tashiydilar. Ushbu logistika bilan bog'liq bosqichda hosilning katta qismi sifat jihatidan buziladi va yo'qoladi. Misol uchun, 2020 yilgi so'rov natijalariga ko'ra, butun dunyo bo'ylab ishlab chiqarilgan oziq-ovqatning 15,3% umumiy qiymati 370 milliard dollarga teng bo'lgan xo'jalik bosqichida isrof bo'lgan. Bu shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarilgan oziq-ovqatning uchdan bir qismidan ko'prog'i isrof qilinmoqda - ehtimol 40% yoki 2,5 milliard tonna. [11]

Oziq-ovqat mahsulotlarining yo'qolishi va isrof bo'lishining asosiy sabablari – hosilni yig'ib olishdan tortib tashish, saqlash va iste'molchilarga yetkazib berishgacha bo'lgan infratuzilmaning yomonligi hamda jahon standartlaridan ancha orqada, shuningdek, zararkunandalar va hasharotlarning zararlanishi, yomon iqlim sharoitida muzlatish va fermentatsiya hisoblanadi. [6]




2-rasm: O'zbekiston uchun Global ochlik indeksi (GOI) reytingi o'zgarishi.

Manba: www.globalhungerindex.org/uzbekistan.html



Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda mamlakatda o'ziga xos mentalitet bilan bog'liq bo'lgan ba'zi holatlar mayjud, masalan, noto'g'ri ovqatlanish (mikronutrient yetishmovchiligi), jumladan, noto'g'ri ovqatlanish, ortiqcha vazn va b. Noto'g'ri ovqatlanish nafaqat odamlarning sog'lig'iga ta'sir qiladi, balki mehnat qobiliyatining sezilarli darajada pasayishi bilan ta'lim qobiliyati va unumdorligiga ta'siri tufayli mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun uzoq muddatli salbiy oqibatlarga olib keladi. Oziq-ovqat xavfsizligi xalqaro ochlik maqsadlari uchun asosiy ko'rsatkich bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligi sifatida kuzatib boriladi.^[7] O'zbekistonda to'yib ovqatlanmasli-kning keng tarqalgani tashvishli masala bo'lib, O'zbekiston aholisining 2,5 foizi to'yib ovqatlanmaydi.^[15]



3-rasm: GOI reytingida ko'rsatkichlarining o'zgarishi.

Manba: www.globalhungerindex.org/uzbekistan.html

GOI reytingining umumiy o'zgarishlari va har bir ko'rsatkich bo'yicha GOI o'zgarishlari haqida ma'lumot 2 va 3-rasmlarda berilgan. 2-rasmdagi ma'lumotdan ko'rinish turibdiki, Global ochlik indeksining umumiy o'zgarishi O'zbekistonda 5,9 ball bilan ochlik darajasi asta-sekin pasayib bormoqda (2000 – 23,7%, 2021 – 5,9%)^[7] 2021-yilgi GOI ballarini hisoblash uchun yetarli ma'lumotlarga ega bo'lgan 116 davlat orasida O'zbekiston 21-o'rinni egallagan. Xuddi shunday pasayish tendentsiyasi GOI ning har bir ko'rsatkichida kuzatilgan. Unda bolalar bo'yining pastligi va to'yib ovqatlanmaslik kabi ko'rsatkichlar qashshoqlikka ta'sirchan ko'rsatkich hisoblanadi. Ular uzoq vaqt davomida etarli darajada ovqatlanish yoki noto'g'ri ovqatlanish tufayli yuzaga keladi^[12] FAOning 2021-yilda oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish bo'yicha mintaqaviy tahliliga oid hisobotiga ko'ra, bo'yi past bo'lib qolgan bolalarning tarqalishi eng kambag'al mamlakatlar guruhlarida yuqoriligi aniqlangan. Bu esa har bir mamlakatlardan oziq-ovqat ta'minoti zanjirini jiddiy qayta ko'rib chiqishlarini va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda uzoq istiqbolli dasturlarni ishlab chiqishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi "Barqaror rivojlanish doirasida milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-son qarori bilan BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ni O'zbekistonda izchillik bilan amalga oshirish maqsadida 2030-yilgacha "Milliy maqsad va vazifalar hamda ularni amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi" tasdiqlandi.^[9] Mazkur yo'l xaritasida 2030-yilgacha bo'lgan davda amalga oshirish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan, jumladan:

- o'ta qashshoqlikni tugatish va qashshoqlikning barcha shakllarini ikki baravar qisqartirish;
- ijtimoiy himoya tizimining manzilliligi va samaradorligini kuchaytirish;
- zarur miqdorda ovqatlanishning yuqori sifati va muvozanatini ta'minlash va to'yib ovqatlanmaslikning barcha shakllarini bartaraf etish;



- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish barqarorligi va samaradorligini ta'minlash;
- qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi tadqiqotlari va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish.

Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash maqsadiga erishish uchun yuqorida sanab o'tilgan Strategiyada quyidagi vazifalar belgilangan:

- oziq-ovqat mahsulotlarining yetarli miqdorini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini ijtimoiy soha ob'ektlari bilan integratsiya qilish;
- g'alla yetishtirishda davlat aralashuvi xaridi tizimini joriy etish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmidan bosqichma-bosqich voz kechish va davlat ehtiyojlari uchun kvota asosida bozor narxlarida don sotib olish mexanizmini joriy etish;
- sog'lom iste'mol qilish madaniyatini yuksaltirish bo'yicha uzoq muddatli dasturni ishlab chiqish;
- xalqaro miqyosda tan olingen metodologiyalar va ilg'or tajribalar asosida oziq-ovqat xavfsizligini baholash tizimlarini joriy etish va doimiy monitoringini olib borish;
- ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni faollashtirish bo'yicha tarmoq dasturlarini ishlab chiqish;
- chorvachilikda mahsuldarlikni oshirish, baliq va parrandachilikni barqaror intensivlashtirish, shuningdek, sut ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish.

Bugungi kunga kelib dalat tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning yangi yo'nalichlari, ya'ni aholi oziq-ovqat iste'moli maxsulotlariga sifat jihatidan qo'yilayotgan talablarning o'zgarishi, ularni saqlash sharoitlarining gigienik va standartlashtirish talablarining kuchaytirilishi, qayta ishlash tarmoqlarini kengaytirilishi kabi yo'nalichlarga qaratilmoqda. Mazkur soha "Ahollining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida", "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida", "Standartlashtirish to'g'risida", "Muvofiqlikni baholash to'g'risida", "Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar bilan yanada mustahkamlanib, qonuniy tartibga solinmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash katta muammo bo'lgan bo'lsa, ohirgi yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda sezilarli natijalarga erishildi. O'zbekiston nafaqat o'zini o'zi ta'minlaydigan, balki boshqa qo'shni davlatlarga bug'doy, sabzavot va meva eksport qiluvchi davlatga aylandi. Biroq oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash quyidagi muammoli vaziyatlar yuzaga kelmoqda:

Birinchidan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilishni diversifikasiya qilish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'payishi ortidan oziq-ovqat ta'minoti muammosini hal qilish talab etilm-oqda.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi sohasida aholi daromadlarining pastligi va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarining qimmatligi tufayli odamlarga zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'moli bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda.

Uchinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, oziq-ovqat yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari, korxona va kompaniyalarning xalqaro sifat standartlariga (ISO 9000) muvofiqligini ta'minlashda to'siqlar mavjudligi kuzatilmoqda.

To'rinchidan, qishloq xo'jaligi korxonalari va fermer xo'jaliklarining infratuzilmasini yaxshilash, ayniqa, hosilni yig'ishtirib olish, tashish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilariga yetkazib berishda tizimli yondashuvlar yo'lda qo'yilmagan.

Beshinchidan, to'g'ri ovqatlanish, to'g'ri ovqatlardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalar aholiga yetkazish bilan bog'liq muammolar mavjud.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagilarni taklif etish mumkin:

- oziq-ovqat siyosatida nafaqat ta'minot siyosatini tanlash, balki qishloq xo'jaligi, logistika bilan bog'liq barcha infratuzilmani to'liq modernizatsiya qilish va rivojlantirish, ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash tarmoq tuzilmalarinin takomillashtirish zarur;



- ilmiy tadqiqot institutlari qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi va chidamliligini oshirish hamda yangi navlarni yaratish maqsadida o'z faoliyatini takomillashtirish va tubdan o'zgartirish orqali genetik injeneriya kabi yangi tarmoqlarni rivojlantirishni jadallashdirishi hisobiga, hukumatga oziq-ovqat va oziq-ovqat xavfsizligini tahlil qilish uchun ko'proq va chuqurroq tadqiqotlar olib borish hamda dehqon va fermer xo'jaliklari bilan hamkorligini kuchaytirish tavsiya etiladi;
- mamlakatda iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, infliyatsiyani jilovlash va aholining xarid qobiliyatini yax-shilash, qishloq aholisi daromadlarini oshirish mexanizmini ishlab chiqish bo'yicha muhim siyosiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilinish talab etiladi;
- aholi yillik o'sish sur'atinining yuqoriligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ta'minlash bo'yicha yaqin keljakda qo'shimcha murakkabliklarni keltirib chiqaradi, shuning uchun hukumat cheklangan yer resurslari va maydonlardan foydalangan holda hosildorlikni oshirishi yo'llariga ko'proq e'tiborni qaratishi lozim. Bunda yuqori texnologiya va innovatsiyalardan foydalanish orqali yuqori mahsuldarlikka va oziq-ovqat chiqindilari va yo'qotishlarni kamaytirish orqali ishlab chiqarishni yanada faollashtirishga erishish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abulqosimov H.R. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma.- Т.:Akademiya, 2012.
2. Зеркалов Д.В. Продовольственная безопасность [Электронный ресурс]: Монография / Д. В. Зеркалов. – Электрон. данные. – К.: Основа, 2009.
3. Ушачев И. и друг. Доктрина продовольственной безопасности РФ нуждается в совершенствовании // Экономика и менеджмент, 2015. № 9.
4. Griggs D. et al., (2013). Sustainable Development Goals for people and planet //Nature. – Т. 495. – №. 7441. – Р. 305-307.
5. Sachs J. D. (2012). From millennium development goals to sustainable development goals //The lancet. – Т. 379. – №. 9832. – p. 2206-2211.
6. Export.gov. Uzbekistan-Agricultural Sectors. Accessed on April 3rd 2019. Available at: <https://www.export.gov/article?id=Uzbekistan-Agricultural-Sectors>
7. Global Hunger Index . GHI Score Trend for Uzbekistan 2021. available at: [Www.Globalhungerindex.Org/Uzbekistan.Html](http://www.Globalhungerindex.Org/Uzbekistan.Html)
8. HLPE. Nutrition and food systems. A report by the High Level Panel of Experts on Food Security and Nutrition of the Committee on World Food Security, Rome. 2017
9. "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-36-son Farmoni. 2024-yil 16-fevraldag'i <https://lex.uz/uz/docs/-6802687>
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2021. <https://stat.uz/en/official-statistics/agriculture>
11. The global impact of food loss and waste on farms . Published June 2021 by WWF-UK. Any reproduction in full or in part of this publication must mention the title and credit WWF-UK as the copyright owner. Text © WWF-UK, 2021 Available at: https://wwfint.awsassets.panda.org/downloads/wwf_uk__driven_to_waste__the_global_impact_of_food_loss_and_waste_on_farms.pdf
12. The State of Food and Agriculture 2020. Overcoming water challenges in agriculture. Rome.
13. The state of Food Security and Nutrition in the world. 2018. Rome. ISBN 978-92-5-13057-3. Available at: https://books.google.co.uz/books?hl=en&lr=&id=LC9uDwAAQBAJ&oi=fnd&pg=PA3&dq=fao+2018+report&ots=0Nbvvq-Je3Kr&sig=Yd2Jv_JAGm6KglN0egogFQFMFR4&redir_esc=y#v=onepage&q=fao%202018%20report&f=false
14. The State of Food Insecurity in the World 2001. Rome. FAO. 2002 p.2 Available at: <https://www.fao.org/3/y4671e/y4671e06.htm#fn31>
15. United Nations, (2015). Sustainable development goals. Available at: <https://sdgs.un.org/goals>
16. United Nations FAO (1996) World Food Summit. Available at <https://www.fao.org/3/w3613e/w3613e00.htm>
17. Файзиев О.Р. Потребность населения в растительном масле в условиях Узбекистана и методические аспекты её определения // "Экономика и предпринимательство". – Москва, 2017 г., №12 (ч.2) (89-2). (Vol. 11 Nom. 12-2) 305-309.
18. Fayziyev O.R. The Problem of Food Security in the Context of Globalization and its Solutions(On the Example of the Republic of Uzbekistan) // Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 22 Mar 2022, 216-219 <https://cejsr.academic-journal.io/index.php/journal/article/view/1149/1050>
19. Файзиев О. Социально-экономическое значение возделывания масличных культур в Узбекистане / Proceedings of the II nd International Scientific and Practical Conference "Modern Scientific Achievements and Their Practical Application (October 20-21, 2015, Dubai, UAE)". – Dubai, 2015. – № 3(3), Vol.3. – P.10-11.

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

